

EKSPERTIZA XULOSALARINI ELEKTRON TAQDIM ETISH IMKONIYATLARI

Ochilova Sevinch Rustam qizi

*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kunduzgi ta'lim
"Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati" mutaxassisligi
bo'yicha tahsil olayotgan 1-o'quv kursi 109-guruh kursanti*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ekspertiza xulosalarini elektron shaklda taqdim etishning afzalliklari, kamchiliklari, qonunchilik asoslari va xorijiy tajribalari tahlil qilingan. Innovatsion yondashuvlar, zamonaviy axborot texnologiyalarining bu sohadagi roli va kelgusidagi rivojlanish istiqbollari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *ekspertiza, elektron tizim, huquqiy asos, sud, onlayn taqdimot.*

Annotation: *This article analyzes the advantages and disadvantages of presenting forensic expert conclusions electronically, including legislative frameworks and international experiences. It discusses innovative approaches, the role of modern IT, and future prospects.*

Keywords: *expertise, electronic system, legal basis, court, online presentation.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются преимущества и недостатки электронного представления экспертных заключений, законодательные основы и зарубежный опыт. Освещаются инновационные подходы, роль современных ИТ и перспективы развития.*

Ключевые слова: *экспертиза, электронная система, правовая база, суд, онлайн-презентация.*

KIRISH

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi huquqiy tizimning ham barcha yo'nalishlarida sezilarli o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Xususan, sud-huquq tizimida ekspertiza xulosalarini elektron shaklda taqdim etish imkoniyatlari yaratilgani yuritilayotgan ishlarning sifatini oshirish, jarayonni tezlashtirish va shaffofligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi, Jinoyat-protsessual kodeksi hamda "Elektron hujjat to'g'risida"gi Qonunida elektron hujjatlarning yuridik kuchi va huquqiy maqomi aniqlab berilgan. Shuningdek, 2020-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4609-sonli qaroriga muvofiq, sud-huquq tizimida raqamlashtirish jarayonlari bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. 2022-yildan boshlab Respublika sud-ekspertiza markazida elektron hujjat aylanish tizimi to'liq joriy etildi. Jumladan, ekspert xulosalarini "E-SUD" axborot tizimi orqali taqdim etish imkoniyati yaratilgan Bunday imkoniyatlar ishlarni yuritishda ortiqcha vaqt va resurslar sarfini kamaytiradi.

Ekspert xulosalarini onlayn taqdim etish birinchi marta 2005-yilda Estoniyada joriy etilgan.

Ushbu mamlakatda elektron identifikatsiya va raqamli imzo tizimlari asosida ekspertizalar onlayn shaklda rasmiylashtirilgan. Germaniyada esa 2012-yildan boshlab Federal sudlarda ekspertiza xulosalari maxsus platforma orqali taqdim etiladi.

O'zbekistonda esa bu amaliyot dastlab 2019-yilda Toshkent shahar jinoyat ishlari bo'yicha sudida sinov tariqasida joriy etilgan bo'lib, shu yili 30 dan ortiq ish bo'yicha ekspertiza xulosalari elektron shaklda qabul qilingan.

Mazkur jarayon to'g'risida, professor M. Mirzayev, "Ekspertiza xulosalarini elektron shaklda taqdim etish huquqiy tizimda ochiqlik, ishonchlilik va tezkorlikni ta'minlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi"³⁴. A.Xolmatov³⁵ esa ushbu tizim orqali inson omiliga bog'liq xatoliklar kamayishini ta'kidlaydi.

Yevropalik olim F. Shulman³⁶ (Germaniya) esa elektron hujjat almashinuvi yordamida ish yuritish byurokratiyasidan xalos bo'lish mumkinligini aytadi. V. Rettinger³⁷ (Avstriya), R. Diter³⁸ (Fransiya), D. Lipshits³⁹ (Litva) kabi mutaxassislar ekspertiza jarayonlarida raqamli texnologiyalar xavfsizligi va qonuniyligiga alohida urg'u beradilar.

Bugungi kunda xorijda ekspertiza xulosalarini elektron taqdi etish usuliga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, Estoniyada 2003-yildan beri faoliyat yuritayotgan "e-Justice" loyihasi orqali barcha sud protsesslari, jumladan ekspert xulosalari ham elektron shaklda yuboriladi. Norvegiyada esa "Domstoladministrasjonen" sud portali orqali ekspertlar elektron imzo bilan tasdiqlangan xulosalarni yuklaydi. Bu tizim o'z ishini 2010-yildan boshlagan.

Shuningdek, dunyo tan olgan AQSHning Federal sudlari hozirgi kunda ECF (Electronic Case Files) tizimi orqali barcha dalil va xulosalarni raqamli tarzda qabul qiladi. O'zbekiston ham bu borada ortda qolayotgani yo'q. Bunga misol qilib, 2023-yil hisobiga ko'ra, Toshkent shahar jinoyat ishlari bo'yicha sudida elektron ekspert xulosalari sababli sud muhokamalari o'rtacha 3 kun oldin yakunlangan.

Shu o'rinda, elektron xulosalar avtomatik ravishda markaziy serverlarda saqlanib ularning yo'qolish xavfi kamayadi. D. Jo'rayevning, "Ekspert xulosasining raqamli shakli uni istalgan vaqtda, istalgan joyda tekshirish imkonini beradi. Bu zamonaviy sud amaliyotida muhim afzallikdir", - degan ta'kidlari yuqoridagi fikrimizning isboti desak mubolag'a bo'lmaydi. Yana bir o'zbek olimlaridan biri Sh. Mahmudovning aytishicha, "Elektron sud ekspertizasi — huquqiy adolat sari tashlangan muhim qadamdir. Bu tizim inson omiliga bog'liq xatoliklarni kamaytiradi va korrupsiya xavfini cheklaydi".

Ekspertiza xulosalarini onlayn taqdim etishning yana bir afzallik tomoni – tezkorlik. Bu ekspert xulosasini tez fursatda yuborish imkoniyati sanaladi.

³⁴ Mirzayev M. Raqamli yondashuvlar va huquqiy tizim. Toshkent, 2020.

³⁵ Xolmatov A. Sud ekspertizasi asoslari. Toshkent, 2021.

³⁶ Shulman F. Digitale Justizsysteme in Europa. Berlin, 2019.

³⁷ Rettinger V. Expert Reports in the Digital Era. Vienna, 2021.

³⁸ Diter R. Justice et Numérique. Paris, 2018.

³⁹ Lipshits D. E-Evidence and Forensic Reports. Vilnius, 2020.

2023-yilda “Sud ekspertiza” axborot tizimi orqali 1500 dan ortiq ishlar tezkorlik bilan hal etilgan. Shuningdek, bu tizim orqali ochiqlik va monitoring – barcha hujjatlar harakati elektron tarzda nazorat qilinadi, bu esa shaffoflikni oshiradi.

Mazkur tizimning afzalliklari bilan bir qatorda o'ziga yarasha kamchiliklari ham mavjud. Eng avvalo, raqamli savodxonlik darajasining pastligi hamda ayrim chekka hududlarda internet tezligining pastligi bu tizimdagi eng dolzarb muammolar hisoblanadi. Shuningdek, tizimning texnik nosozliklariga to'xtaladigan bo'lsak, tizimdagi bu bo'shliq 2022-yilda Namangan viloyatida internet uzilishi sababli ekspert xulosasi yuborilmay qolishiga va sud kechiktirilishiga sabab bo'lgan. Albatta bunday kamchiliklar davlat idoralari xodimlari va ekspertlar uchun raqamli savodxonlikni oshirish bo'yicha muntazam treninglar o'tkazish hamda chekka hududlar uchun mobil internet stansiyalarini joriy etish orqali hal etiladi.

Ekspertiza xulosalarini onlayn taqdim etish usulini yana samarali tashkil etish hamda huquqiy jihatdan aniq tartibga solish uchun bir necha takliflar mavjud. Jumladan, “E-ekspert” yagona onlayn platformasini ishlab chiqish, blokcheyn texnologiyasi asosida ekspertiza xulosasini tekshirish tizimini yaratish, mobil ilova orqali ekspertiza holatini kuzatish imkoniyatini yaratish, har bir viloyatda elektron taqdimot bo'yicha markazlashtirilgan vakolatxonalar tashkil etish mazkur tizimni yana rivojlanishiga xizmat qiladi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Xulosa

Elektron shaklda ekspertiza xulosalarini taqdim etish nafaqat zamonaviy talablarga javob beradi, balki huquqiy tizimda samaradorlik va ishonchlilikni oshiradi. Bu tizimni mukammallashtirish uchun zamonaviy infratuzilmani kengaytirish, qonunchilikni takomillashtirish va malakali mutaxassislar tayyorlash zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi, 2022-yil tahriri.
2. “Elektron hujjat to'g'risida”gi Qonun, 2015-yil.
3. Mirzayev M. Raqamli yondashuvlar va huquqiy tizim. Toshkent, 2020.
4. Shulman F. Digitale Justizsysteme in Europa. Berlin, 2019.
5. Rettinger V. Expert Reports in the Digital Era. Vienna, 2021.
6. Xolmatov A. Sud ekspertizasi asoslari. Toshkent, 2021.
7. Diter R. Justice et Numérique. Paris, 2018.
8. Mahmudov Sh. Zamonaviy ekspertiza uslublari. Toshkent, 2022.
9. Lipshits D. E-Evidence and Forensic Reports. Vilnius, 2020.